

NEOLOGIZMLAR VA VARVARIZMLAR - O'ZBEK TILI, MA'DANIYATI VA MILLIY MAFKURASIGA JIDDIY XAVF

Narzullayev Bektemur Sohib o'g'li
Qashqadaryo viloyati, Kitob tumani
1-sonli kasb-hunar maktabi o'qituvchisi

Annotatsiya: O'zbek tili neologizmlar va varvarizmlar natijasida turkiyligini yo'qotishi, milliy ma'daniyati va milliy mafkurasidagi o'zgarishlar.

Tayanch so'zlar: milliy ma'daniyat, milliy mafkura, neologizmlar, varvarizmlar, tarixiy so'zlar, eskirgan so'zlar.

Tarixan uzoq o'tmishga ega o'zbek xalqi o'z tili va ma'daniyatiga ega. O'z tilida Navoiy, Atoiy, Nodira Uvaysiy ijodida zavq-shavqni tuygan o'zbek xalqining oldida hozir o'z tili ma'daniyati va milliy mafkurasiga jiddiy xavf paydo bo'lgan. Bular neologizmlar va varvarizmlardir. Bu vositalar hatto o'zbek elining tili, milliy mafkurasiga sezilarli tasirini ko'rsatmoqda.

O'zbek tili leksikologiyasidagi so'zlar 3 ga bo'linadi:

1. Tarixiy so'zlar (istorizmlar). O'tmishga oid narsa, hodisalarni ifodalagan, biroq hozirgi tilimizda o'z sinonimiga ega bo'lmagan so'zlardir. Masalan: miri, paqir, (pul birliklari) qozi, qushbegi, yasovul, xalifa (mansab nomlari), omoch, yorg'ichoq, charx kabilar.

2. Eskirgan so'zlar (arxaizmlar). Hozirgi kunda mavjud bo'lgan narsa va hodisalarning eskirib qolgan nomlaridir. Eskirgan so'zlarning hozirgi tilda sinonimi mavjud bo'ladi.

Masalan: budun, ulus, raiyat – xalq; handasa - geometriya; muarrix – tarixchi; dudoq – lab; lang - cho'loq, oqsoq.

3. Yangi so'zlar (neologizmlar). Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot va o'zgarishlar natijasida vujudga kelgan narsa - hodisalarning yangi nomlaridir. Masalan, O'zbekiston mustaqil bo'lgandan so'ng tilimizda paydo bo'lgan faxriy - veteran, noib - deputat, tuman - rayon, tayyora - samolyot kabi so'zlar yangi so'zlardir. Yangi so'zlarning nafaol so'zlar qatoridan o'rin egallashi sababi shundaki, ular paydo bo'lgandan keng iste'moldagi so'zlar singari barchaning nutqida birdek ishlatilavermay-di. Biroq vaqtlar o'tishi bilan yangi so'zlar ham keng iste'moldagi so'zlar qatoridan o'rin egallashi mumkin. Masalan, 60-yillarda yangi so'zlar hisoblangan kosmos, kosmonavt, kosmik kema kabilar hozirgi kunda yangi so'z hisoblanmaydi. Shuni ham qayd etish lozimki, taraqqiyotning ma'lum davrida tarixiy yoki eskirgan so'zlar qatoriga o'tgan so'zlar hisobidan ham yuzaga kelishi mumkin. Masalan, hozirgi tilimizda tuman, hokim, vazir, noib kabi neologizim sifatida

qo'llanila-yotgan so'zlar aslida tarixiy va eskirgan so'zlarning yangilashgan holda qayta iste'molga kirib kelishidan dalolat beradi.

Hozirgi zamonaviy o'zbek tilida uchinchi guruhdagi so'zlar soni ko'payib bormoqda. Bunday so'zlar har bir sohada uchrashi oddiy hol bo'lib qolgan. Tilimizda ba'zi so'zlarning o'zbekcha muqobili yoki oldindan qo'llanib kelgan varianti bor bo'lsa-da, ishlatmaymiz. Hatto talaffuzi nisbatan qiyinroq bo'lsa ham, chet so'zni ma'qul ko'ramiz. Ba'zi so'zlarning o'zbekcha muqobili esa allaqachon esdan chiqqan.

Parol – im, o'ron

Parol so'zining bir emas, kamida ikkita o'zbekcha muqobili bor. Bittasini bugun ham ishlatamiz. Lekin parol ma'nosida qo'llamaymiz. Gap imo, imo-ishora, imlamoq, im qilmoq, im qoqmoq so'zlari tarkibidagi im haqida ketyapti. Mahmud Koshg'ariy "Devonu lug'atit turk"da im so'zini shunday sharhlaydi: shoh askarlariga qo'yilgan, tayinlangan yashirin belgi, parol. Bu belgi qush yoki qurol nomi yoki biror so'zdan iborat bo'lishi mumkin. To'qnashganda uni aytib o'zlarini tanitadilar. Maqolda shunday kelgan: "Im bilsa, er o'lmas". Ya'ni kishi yashirin belgini bilsa, nohaq o'lmaydi. Bu izohdan im so'zi parol ma'nosini to'la-to'kis ifodalashini anglash mumkin. Im so'zi ishora ma'nosida qadimda ham qo'llangan. Jumladan, "Devon"da imlamoq so'zi imlash, ko'z yoki qo'l bilan ishora qilish deb sharhlangan.

Parol uchun boshqa bir muqobilni "Boburnoma" topib beradi: "Bizning cherikning g'avg'osin eshitib, inchalik bila ilgarrak kelib o'rondashurlar. Bu o'ron ikki nav bo'lur: bir ulkim, har qavmning o'roni bor, nechukkim... ish vaqtida uchrashqonda biri bir lafzni aytqonda yana biri ul ma'hud lafzni aytqay, to bu tariq bila el yog'iydin ayrilgay va o'z kishini yotdin farq qilg'ay. Ul yurushta ma'hud o'ron alfazi "Toshkand" bila "Sayram" edi. Toshkand desa, Sayram deyilgay, Sayram desa – Toshkand". Yuqoridagi parchadan o'ron aynan parol, maxfiy so'z ma'nosini anglatishini bilib oldik. Ikki xil o'ron bor, deyapti Bobur mirzo: biri bittagina so'z bo'ladi, ba'zi qishloq yoki jamoa vakillari o'zlari uchun tanlab olishadi. O'sha so'zni aytsangiz, dushman emas, qavmning o'z odami ekaningiz yuzaga chiqadi. Ikkinchi xil o'ron ikki so'zdan tashkil topadi: ikki so'zdan biri aytilganda siz juftini aytishingiz kerak. Masalan, Toshkent-Sayram o'ronidan Toshkent deyilsa – Sayram, Sayram deyilsa – Toshkent deyishingiz zarur. Shunda o'ronni – parolni to'g'ri topgan bo'lasiz. Yo'qsa, dushman yo begona sanalasiz va muomala ham shunga yarasha bo'ladi. Bugun parol so'zi ko'p ishlatiladi. Ayniqsa, internet va texnologiyalar bilan bog'liq matnlarda, dastur va ilovalarda unga albatta yo'liqasiz. Mana shu joylarda im yoki o'ron so'zini parol so'zi o'rnida bimalol qo'llash mumkin. Lekin uni asl egalari, ya'ni biz qabul qila olamizmi-yo'qmi – shudir masala.

Otves – shoqul yoki shovun. Ko'p so'zlarning o'zbekchasi yoki tilimizda eskidan qo'llangan muqobili bo'la turib, ishlatmaymiz. Masalan, qurilishda devor, ustun, eshik

kabilarning tikligi bir uchiga tosh yoki temir bog'langan ipli asbob bilan aniqlanadi. Ustalar uning ruscha nomidan foydalanadi – otves.

Bu uskuna o'zbek tilida shoqul yoki shovun deyiladi. Shoqulning ildizi hindcha saxul so'ziga borib taqaladi. Saxul ipga bog'lab osiltirilgan qo'rg'oshin soqqani anglatgan. U shoqul shaklida arab tiliga, so'ng o'zbekchaga o'tgan. Shovun so'zi esa aslan o'zbekcha. Uning ma'nosi shoqul bilan bir xil.

Namordnik – burundiq. Itlarning tumshug'iga taqiladigan himoya qalqonini ruslar намордник deydi. Bu so'z морда – tumshuq so'zidan yasalgan. Ba'zi o'rinlarda shu tushunchani ifodalash uchun “tumshuqbog'” so'zi ishlatilgan. “O'zbekcha-ruscha lug'at” esa tumshuqlik deb izohlagan. “Ruscha-o'zbekcha lug'at” tumshuqbog', burundiq deb o'giribdi. Burundiq so'zini izohli lug'at asov, tishlong'ich tuyaning yoki qopag'on itning tumshug'iga kiydirib qo'yiladigan maxsus to'r deb izohlagan: Yaydoq dala kelganda burundiqni bo'shatar. (A. Muxtor) .Izohli lug'atda tumshuqlik yoki tumshuqbog' so'zlari yo'q ekan. Burundiq turkiycha so'z. So'zning izohidan burundiq juda qadimiy lug'at ekani ham anglashiladi. “Devonu lug'atit turk”da burundiq so'zi jilov, no'xta deb izohlangan. Boshqa bir o'rinda shunday misol keltirilgan: Er burundiq butluqa taqdi – tuya burnining yumshoq joyiga burundiq taqdi, bog'ladi (o'g'uzcha).

Vaksina – emlama, emdori

Koronavirus bilan bog'liq vaziyat vaksina, vaksinatsiyalash, vaksina olish, vaksina qabul qilish kabi so'zlarni urfga kirgizdi.

Vaksina – em, emdori, emlama, emlik.

Vaksinatsiyalash – emlash, emlama qilish.

Vaksina olish, vaksina qabul qilish – emlanish.

Em so'zi chechak va ba'zi boshqa kasalliklarning oldini olish uchun teri orqali yuboriladigan zardob va uni teri orqali yuborishni, dori-darmon, shifobaxsh narsani anglatadi. Bu so'zni teri yoki qontomirlar orqali yuborilmaydigan, masalan, tomizg'i shaklidagi vaksinalarga ham ishlatish mumkin. Vaksina so'ziga izohli lug'atda “yuqumli kasalliklarning oldini olish va davolash uchun ishlatiladigan emdori, emlashda ishlatiladigan dori” deb izoh berilgan.

Vaksina so'zi o'rnida em so'zini qo'llash hozir deyarli iste'moldan chiqdi. Hech bo'lmasa, emlash, emlamoq, emlama so'zlaridan foydalanish kerak. Hatto vaksina so'ziga sinonim sifatida emdori ham bemalol ishlatilgan bo'ladi. Lekin bu kimlargadir g'aliz tuyulishi mumkin. O'zi til zaiflashgani sari hatto o'z egalariga ham tobora erish tuyuladi. Vaksina so'zi alohida tibbiy ma'noga ega degan sabab ham aytilishi mumkin. O'sha ma'noni emlama, emdori yoki em so'ziga ham bemalol yuklasa bo'ladi: Kecha poliklinikada vaksina oldim — Kecha poliklinikada emlandim. Bir millionga yaqin kishi vaksina qabul qildi — Bir millionga yaqin kishi emlandi.

Koronavirusga qarshi vaksina — Koronavirusga qarshi emdori.

Lugʻatlarimizda emlama soʻzi yoʻq. Lekin u xalq tilida faol ishlatiladi. Bu soʻzni lugʻatlarga albatta kiritish kerak.

Bir eslatmani yana bir bor takrorlab qoʻyish ziyon qilmaydi: til oʻzicha rivojlanmaydi, u chet tillardan soʻz olib ham boyiydi. Lekin bunda ham meʼyor bor, til oʻz imkonini yetmagandagina chetdan soʻz olishi kerak. Yoʻqsa, oʻzlashtirish boyishga emas, qashshoqlashishga xizmat qiladi. Oʻzbekchaga singib, oʻzimizniki boʻlib ketgan soʻzlarga esa yotsirab qaramaslik zarur.

Soʻzlashuv tilida juda koʻp oʻzbekcha yoki oʻzbekchalashgan soʻzlarning oʻrnini yot soʻzlar egallab olgan. Aslida, bu soʻzlarning soddaroq, qisqaroq, tushunarliroq oʻzbekcha shakli bor. Lekin negadir begona soʻzlarni qoʻllayveramiz. Bu narsa ongimizga shu qadar singib ketganidan qanday holga tushib qolganimizni sezmaymiz ham.

Quyida shunday soʻzlarning kichik lugʻati bilan tanishasiz.

Chet soʻzlar oʻzbekcha talaffuzda berilgan.

Avans – boʻlak.

Aklad – oylik, maosh.

Astanoʻfka – bekat.

Balnisa – kasalxona, shifoxona.

Brat – aka, akaxon.

Vapshe, obshe – umuman.

Golubsi – karamdoʻlma.

Da (telefon koʻtarilganda) – eshitaman, labbay. Yoki xalqaro alo soʻzini ham ishlatish mumkin.

Izdivatsa qilmoq – ustidan kulmoq.

Zdachi – qaytim.

Kanikul – taʼtil.

Kapchoʻniy – dudlangan, qoq, sur.

Karoichi – qisqasi.

Koja – teri, charm, koʻn.

Mazgi – miya.

Malades – yashang, yasha, yashavor. Ota-buvalarimiz bu soʻz oʻrnida “barakalloh” degan soʻzni ishlatgan.

Marazilnik – muzlatgich.

Mashennik – firibgar, qallob.

Medsestra – hamshira.

Moʻshniy – kuchli, zoʻr.

Narmalni – tuzuk, yaxshi, durust, chidasa boʻladi. Juda shu soʻzga mehr-muhabbatli boʻlgan kishi normal deb ishlatishi ham mumkin.

Naski – paypoq.

Otdix – dam olish.

Pashti – deyarli.

Popkorn – oqtelpak, bodroq.

Prayezd – kira haqi, yo‘lhaqi.

Propka – tiqilinch (yo‘lda); tiqin (idishda).

Rayo‘n – tuman. Bu so‘z yoshi kattalar orasida hali-hanuz ishlatilyapti.

Salyo‘niy – tuzlangan, tuzlama, sho‘r.

Svejiy – yangi.

Svet – chiroq.

Travma – jarohat.

Uje – bu so‘z alohida so‘z bilan tarjima qilinmaydi, qo‘shimchalardayoq ma‘nosi ifodalanadi. Masalan, “Uje keldim” deyish o‘rniga “kelib bo‘ldim” deyiladi.

Uspet qilmoq – ulgurmoq.

Xaladilnik – sovitkich.

Chtobi – uchun. Masalan, “Atayin to‘liq gapirib berdim. Chtobi sen tushungin”. Tushunishing uchun atayin to‘liq gapirib berdim deyish qisqa, lo‘nda, o‘zbekcha.

Ekanom qilmoq – tejamoq.

Tilimizda qancha begona so‘z bo‘lsa, ruhimizda shuncha begona ruh bor. Milliy taraqqiyotimiz har sohaga yangilanishlarni olib kirmoqda. Deyarli hech bir jabhada almisoqdan qolgan uslublar, texnologiyalardan foydalanilayotgani yo‘q. Biroq o‘zbek adabiy tili bugungi milliy taraqqiyotimiz bilan hamohang emas.

Adabiy til butun xalq so‘zlashuv tilini, afsuski, qamrab ololmayapti. Shu tufayli jamiyatda shevalar ustuvor. Dialektika va jargon so‘zlar kino, teatr, estrada san’ati, hatto jurnalistikaga kirib bordi. Bu jarayonni jilovlay ololmayapmiz. Chunki tilda aydarli islohotlar qila olmadik.

Ehtimol shuning uchun lug‘atimizda ajnabiy so‘zlar miqdori keskin oshib ketgandir. Huquqiy yoki iqtisodiy sohada milliy terminologiya yaratildimi? Bugun zamonaviy mavzularda sof o‘zbekcha suhbat qurishning imkoni bo‘lmay qoldi. E’tibor qiling, hozirgi yoshlar gaplashayotgan o‘zbekcha bilan katta avlod gurunglashayotgan ona tilimiz orasida qancha farq bor! Yoki oddiy bir misol. Hazrat Navoiyni-ku, aytmay qo‘ya qolaylik, yangi avlod hatto Qodiriy, Fitrat, Cho‘lpon bobolarimizning yozganlarini ham tushunishga qiynalib qoldi. "

Tilimizda mavjud juda ko‘p neologizm, varvarizmlarining muqobili mavjud bo‘lsa ham, biz ularni nutqimizda foydalanmaymiz. Bu o‘z tilimizga nisbat befarqligimiz tufaylidir. So‘zlashuv nutqimizda varvarizmlar ham bor. Varvarizmlar nima?!

Varvarizm (lat. “ajnabiy”)-boshqa tillardan olingan so‘z va iboralarni o‘rinsiz qo‘llash. Masalan: momoy, babulya, bratishka, gardkam, mersi, danke... Jonli

(so‘zlashuv) tilda uchraydigan, keng iste’molda qo‘llanmay, ayrim shaxslarning xulq-atvorini, tabiatini ko‘rsatib turadigan so‘z va iboralar noadabiy qatlami hisoblanadi.¹

Agar tilimizda shunday so‘zlarning soni turkiy so‘zlarning sonidan oshib, ustunlikka ega bo‘lsa, tilmizning leksikologiyasi, grammatikasiga ham o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. Eng yomon tomoni shundan iboratki, qaysi tilning so‘zlari ko‘p kirib kelsa, usha tilning mafkurasi ham kirib keladi. Natijada bizning milliy ma’daniyat va milliy mafkuramiz o‘zgarishiga olib kelishi mumkin. Milliyligini yo‘qotgan el boshqa ellar tarkibiga singib ketish ehtimoli bor.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. „O‘zbek tilining izohli lug‘ati“- „O‘zbekiston milliy ensklopediyasi“ davlat milliy nashriyoti. Toshkent. 2006
2. Xolmanova. Z. T. „Tilshunoslikka kirish“ Toshkent 2007

¹ Xolmanova. Z. T. „Tilshunoslikka kirish“ Toshkent 2007